


ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI ILMYIY KONFERENSIYA

# YANGI O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

CONFERENCES.UZ 2023

DAVRIYLIGI: 2018-2023

DUNYODA BIRINCHI KASHF ETILGAN ELEKTR BATAREYA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJY OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

 TOSHKENT SHAHAR, AMIR TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.

 +998 97 420 88 81  
+998 94 404 00 00

 WWW.TAQIQOT.UZ  
WWW.CONFERENCES.UZ

 MAY №52

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИННОВАЦИЯ, ФАН  
ВА ТАЪЛИМ  
1-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
ИННОВАЦИИ, НАУКА  
И ОБРАЗОВАНИЕ  
ЧАСТЬ-1**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
INNOVATION, SCIENCE  
AND EDUCATION  
PART-1**

**ТОШКЕНТ-2023**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 52-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 26 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттита устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

#### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

#### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

#### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

#### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

#### **5. Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

#### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

#### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

**24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

**25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ**

<b>1. Asatov Akbar Laziz o'g'li</b> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ADVOKATURA INSTITUTI.....	7
<b>2. Мўминов Мирзахоким Абдухамид ўғли</b> КОРХОНА ДИРЕКТОРИДАН КОРХОНАНИНГ ҚАРЗЛАРИНИ УНДИРИШ МУМКИН- МИ.....	10
<b>3. Mo'minov Mirzakhokim Abdukhamid o'g'li</b> THE CONCEPT OF DOUBLE TAXATION. AVOIDANCE OF DOUBLE TAXATION IN DOMESTIC AND INTERNATIONAL LAW .....	13
<b>4. Ashuroxunova Iroda Tohir qizi</b> DAVLAT FUNKSIYASI TUSHUNCHASI HAMDA UNI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI .....	16
<b>5. Бекчанов Алишер Илхамбоевич</b> НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ ҲУЖЖАТЛАРНИНГ ҲУҚУҚ МАНБАЛАРИ ТИЗИМИДАГИ ЎРНИ.....	18
<b>6. Азаматова Динара Азаматовна</b> ДЕМОКРАТИЧЕСКИЙ И КОНСТИТУЦИОННЫЙ СТРОЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИ- СТАН – СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТИТУТА ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА .....	21
<b>7. Камалова Гулноза Абдубаситовна</b> УДОСТОВЕРЕНИЕ КРУПНОЙ СДЕЛКИ НОТАРИУСОМ .....	23



## ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

### О‘ЗБЕКISTON RESPUBLIKASIDA ADVOKATURA INSTITUTI

**Asatov Akbar Laziz o‘g‘li**

О‘zbekiston milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

yurisprudensiya-biznes huquqi talabasi

**Annotatsiya.** Hozirgi dunyo huquqiy tizimlarining hammasida odil sudlovning asosiy tarkibiy qismi hisoblanmish advokatura instituti alohida o‘rin egallaydi. Advokatura instituti fuqarolik jamiyatini shakllantirish, demokratik huquqiy davlatlar barpo etish va uning taraqqiyotida birlamchi shart hisoblanadi. Chunki har bir fuqaroni malakali yuridik yordam bilan ta‘minlash huquqiy davlatning eng muhim funksiyalaridan biridir. Ushbu maqola aynan shu funktsiyani amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasida qanday normalar mavjudligi, bundan tashqari, advokatlik faoliyati, uning turlari, vazifalari, prinsiplar, tashkiliy shakllari, bu maqomga ega bo‘lish tartibi, advokatlik faoliyatining kafolatlari va 2023-yil 1-maydan kuchga kirgan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bu institutga oid qanday yangi normalar kiritilganligi haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** advokatura, prinsip, konstitutsiya, referendum, respublika, patent, mediator, arbitraj.

Davlat organlarining biron-bir huquq normasini qo‘llashda o‘z vakolatidan chetga chiqishini tiyib turuvchi mustahkam mexanizm kerak bo‘ladi. Insoniyat tarixida muvaffaqiyatli sinovdan o‘tgan bunday kuch esa fuqarolik jamiyati – nodavlat notijorat tashkilotlaridir. Shuning uchun ham davlat mazmunan notijorat tizim bo‘lmish advokatura institutini mustahkamlashdan manfaatdor hisoblanadi. Jamiyatda malakali yuridik yordamga doimiy ehtiyoj bo‘ladi. Bu esa davlatni jamiyat manfaatlari yo‘lida advokatura institutini har tamomlana rivojlantirishga undaydi.

O‘zbekiston Respublikasida ham mustaqillikka erishgandan so‘ng bu institutga alohida ahamiyat berilib, unga oid normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mamlakatimiz qonunchiligida mazkur institutga oid 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan “Advokatura to‘g‘risida” va 1998-yil 25-dekabrda “Advokarlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida” qonunlar qabul qilingan. Shuningdek yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida advokatura instituti maxsus bobda muhlahkamlandi (XXIV bob) va uning konstitutsiyaviy asosda belgilanishi bu huquqiy institutning ahamiyati yuqori ekanligini ko‘rsatdi.

O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonunning 1-moddasida belgilanishicha, Advokatura — huquqiy institut bo‘lib, u advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug‘ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko‘ngilli, kasbiy birlashmalarini o‘z ichiga oladi. Advokatura O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko‘rsatadi.

Advokatlik faoliyati advokatlar tomonidan amalga oshirilib, qonunchilikka ko‘ra, oliy yuridik ma‘lumotga ega bo‘lgan va advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyani belgilangan tartibda olgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi O‘zbekiston Respublikasida advokat bo‘lishi mumkin. Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, shuningdek sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslarning advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Advokat ilmiy va pedagogik, O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasidagi (bundan buyon matnda Advokatlar palatasi deb yuritiladi) va uning hududiy boshqarmalaridagi, patent vakili va mediator sifatidagi, shartnomaviy-huquqiy asosda davlat organlarining, xo‘jalik boshqaruvi organlarining, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimi sifatidagi, hakamlik sudlarida va xalqaro tijorat arbitrajlarida (sudlarida) sudya sifatidagi faoliyatdan tashqari haq



to‘lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug‘ullanishga haqli emas.

“Advokatura to‘g‘risida”gi qonunning 3<sup>1</sup>-moddasiga binoan advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun litsenziya Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan tegishli malaka komissiyalarining qarorlari asosida beriladi. Litsenziya olish uchun advokat maqomiga ega bo‘lishga talabgor shaxs yuridik mutaxassislik bo‘yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo‘lishi, shu jumladan advokatlik tuzilmasida (advokatlik byurosida, advokatlik firmasida, advokatlar hay‘atida, yuridik maslahatxonada) kamida uch oy muddat stajirovka o‘tagan bo‘lishi kerak hamda malaka imtihonini topshirishi shart. Belgilangan tartibda litsenziya olgan talabgor uch oy ichida advokat qasamyodini qabul qilishi va yakka tartibda yoki litsenziyaga ega bo‘lgan boshqa shaxslar bilan birgalikda advokatlik tuzilmasini tuzishi yoxud faoliyat ko‘rsatayotgan advokatlik tuzilmalaridan biriga kirishi shart.

Advokatura o‘z faoliyatini qonun ustuvorligi, mustaqillik va boshqa demokratik prinsiplar asosida amalga oshiradi. Advokat o‘z faoliyatini faqat bitta advokatlik tuzilmasida amalga oshiradi. Qonun bo‘yicha advokatlik byurosi, firmasi, hay‘ati va yuridik maslahatxona kabi tuzilmalar mavjud. Advokatlik byurosi - advokatlik faoliyatini yakka tartibda amalga oshirish uchun advokat tomonidan ta‘sis etilgan, notijorat tashkiloti bo‘lgan advokatlik tuzilmasi. Advokatlik firmasi esa sheriklikka asoslangan va advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun advokatlar tomonidan ta‘sis etilgan, notijorat tashkiloti bo‘lgan advokatlik tuzilmasi. Advokatlik byurosi va firmasining ta‘sis hujjati uning muassislari tomonidan tasdiqlanadigan ustavdir. Keyingi tuzilma bu advokatlar hay‘ati bo‘lib a‘zolikka asoslangan va advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun advokatlar tomonidan ta‘sis etilgan, notijorat tashkiloti bo‘lgan advokatlik tuzilmasi. Advokatlar hay‘atining ta‘sis hujjatlari uning muassislari tomonidan tasdiqlanadigan ustav hamda ular tomonidan tuziladigan ta‘sis shartnomasidir. So‘nggi tuzilma bu yuridik maslahatxona hisoblanib, u advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan tashkil etiladigan va yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan advokatlik tuzilmasi.

Advokat o‘z faoliyatini amalga oshirishi davomida yordamchi va stajyorga ega bo‘lishi mumkin. Ularning huquqiy holati “Advokatura to‘g‘risida”gi qonun bilan belgilangan. Birinchi advokat yordamchisini ko‘rib chiqamiz. Yuridik ma‘lumotga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi advokat yordamchisi bo‘lishi mumkin. Advokat yordamchisi advokat huquqlariga ega bo‘lmaydi, shuningdek uning tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlarda, surishtiruv, dastlabki tergov organlarida, sudlarda va boshqa davlat organlarida ishlarni olib borishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Advokat yordamchisi advokat ko‘rsatmasiga binoan advokatning protsessual vakolatlariga tegishli ishlardan tashqari boshqa yurituvidagi ishlar bo‘yicha topshiriqlarni bajaradi. Advokat stajyori qonunga ko‘ra kamida uch yillik ish stajiga ega bo‘lishi kerak hisoblanadi. Oliy yuridik ma‘lumotga ega bo‘lgan shaxs advokatning stajyori bo‘lishi mumkin. Stajirovka advokatlik tuzilmasida o‘taladi. Stajyori o‘z faoliyatini advokat rahbarligida, uning alohida topshiriqlarini bajargan holda amalga oshiradi. Stajyor advokatlik faoliyati bilan mustaqil ravishda shug‘ullanishga haqli emas. Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, shuningdek sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxs advokatning yordamchisi yoki stajyori bo‘lishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasida Adliya vazirligiga qarashli barcha advokatlarining majburiy a‘ziligiga asoslangan notijorat tashkiloti hisoblanmish Advokatlar palatasi faoliyat yuritadi. Advokatlar palatasi advokatlarning qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan faoliyatiga aralashmaslik prinsipi asosida faoliyat ko‘rsatish sharti bilan faoliyat amalga oshiradi. Ushbu tashkilot o‘zining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida hududiy boshqarmalariga ega va ular bilan birgalikda advokaturaning yagona o‘zini o‘zi boshqarish tizimini tashkil etadi. Advokatlar palatasining vazifalari va vakolatlariga o‘xshash vazifalar va vakolatlarga ega bo‘lgan boshqa tashkilotlarni tashkil etishga yo‘l qo‘yilmaydi. Advokatlar palatasi va uning hududiy boshqarmalarining o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari barcha advokatlik tuzilmalari va advokatlar uchun majburiydir. Advokatlar palatasi faoliyatini moliyalashtirish Advokatlar palatasi Konferentsiyasi tomonidan miqdori belgilanadigan kirish va a‘zolik badallari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, zarur bilimlar va kasbiy malakalarga ega bo‘lgan shaxslarga litsenziyalar berish to‘g‘risidagi masalani hal etish, advokat qasamyodini qabul qilish maqsadida, advokatlarga nisbatan intizomiy ish yuritishni olib borish uchun Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzurida





malaka komissiyalari faoliyat olib boradi. Hozirgi kunda advokatura institutini rivojlantirishga oid davlatimiz tomonidan bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, yurtimiz rahbarining “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobida ta’kidlanganidek, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi mustaqil advokatura faoliyatini samarali tashkil etishni nazarda tutadi. Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyalash bugungi kunning dolzarb vazifasidir”. Asarda sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyalash bugungi kunning dolzarb vazifasi ekanligi va bu borada "Mustaqil advokatura konsepsiyasi" ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi hamda tergov va sudning barcha bosqichlarida advokatning roli yanada oshirish, Advokatlar akademiyasi faoliyati yo‘lga qo‘yilishi keltirilgan. Ushbu asardagi advokaturaga oid davlatimizning taraqqiyot yo‘lidagi maqsadlar yaqin kelajakda O‘zbekistonda shu tizimini rivojlantirish sohasida erishiladigan yutuqlar xorijiy mamlakatlar uchun namuna sifatida e’tibor qozonishidan dalolat beradi.

Shuningdek, Taraqqiyot strategiyasining 19-maqsadi – “Advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish, aholi va tadbirkorlik sub’ektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo‘lgan talabini to‘liq qondirish”dan iboratdir.

Umumxalq referendumini orqali tasdiqlangan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida advokatura instituti oid bob kiritilganligi ham bu sohaga e’tibor kuchayganligidan dalolat beradi. Ushbu bobdagi 141-moddada “Jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko‘rsatish uchun advokatura faoliyat ko‘rsatadi. Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o‘zini o‘zi boshqarish prinsiplariga asoslanadi”, degan yangi norma mustahkamlandi. Ushbu norma orqali advokatura institutining maqomi Konstitutsiya darajasigacha ko‘tarildi va barcha fuqarolarga malakali yuridik yordam kafolatlandi. Binobarin, malakali yuridik yordam har qanday shaxs yoki davlat organi xodimi tomonidan emas, balki tegishli malaka va litsenziyaga ega advokatlar tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, bu normada advokatlik faoliyatining asosiy prinsiplari ham belgilandi. Advokaturaga oid normalar Braziliya, Italiya, Ispaniya kabi mamlakatlarning konstitutsiyalarida ham mustahkamlangan.

Yangi konstitutsiyaning 142-moddasiga ko‘ra advokat o‘z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi. Bu esa, kuchli advokatura tizimini yaratishga, shuningdek “hech bir idora advokatlarning faoliyatiga to‘sqinlik qilmasligi shart” degan g‘oyani to‘laqonli amalga oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ushbu moddada advokatga o‘z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz, xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta’minlanishi va advokat, uning sha’ni, qadr-qimmatini va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo‘lishi va qonun bilan muhofaza qilinishiga oid norma mustahkamlandi. Bu norma birinchidan advokatga tashqi bosimlarsiz malakali yuridik yordam berishga xizmat qiladi. Ikkinchidan esa advokarning xavfsizligiga tahdid bo‘lganida u davlat tomonidan himoyada ekanligini bildiradi. Bunday normalar Avstriya, Bolgariya, Finlyandiya kabi davlatlarning konstitutsiyalarida ham uchraydi.

Bunday normalarning konstitutsiyaviy darajada ko‘tarilishi advokatlarning nufuzini yanada oshirishga, ularning o‘z vakolat va vazifalarini hech kimning aralashuvisiz mustaqil amalga oshirishga, shuningdek fuqarolarning huquqlarini yuqori darajada himoya qilishga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:**

1. Sh.Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 420 b.
2. TDYU Yangilanayotgan konstitutsiya 100 ta savolga 100 ta javob – Toshkent: Adolat, 2023. –180 b
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir) – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni. 2023-yil 1-maydagi O‘RQ-837-son Qonuni bilan qabul qilingan. "Xalq so'zi" gazetasi № 87. 02.05.2023-yil. 1-6 bet. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son [Elektron manba] <https://lex.uz/docs/-6445145>
4. TDYU Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar. – Toshkent: Hamkornashr, 2020. – 374 b.
5. O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 27 dekabrda “Advokatura to‘g‘risida”gi 391-I-sonli qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 2-son.
6. <https://www.lex.uz>



## КОРХОНА ДИРЕКТОРИДАН КОРХОНАНИНГ ҚАРЗЛАРИНИ УНДИРИШ МУМКИНМИ

**Мўминов Мирзахоким Абдухамид ўғли**  
Тошкент давлат юридик университети “Халқаро  
тижорат ҳуқуқи” йўналиши магистранти  
Телефон: +998911217469  
E-mail: mirzahakim700@gmail.com

**Аннотация:** Ушбу мақолада муаллиф корхона директорининг ўз мажбуриятларини бажармаслиги натижасида корхонага ҳисобланган ортиқча солиқ юзасидан жавобгарлиги масаласи муҳокама қилинган. Бундан ташқари, корхона бош директорининг фуқаролик, маъмурий ва жиноий жавобгарлик масалалари ҳам таҳлил қилинган. Муаллиф халқаро шартномаларни чуқур ўрганиш орқали миллий қонунчиликда мавжуд бўлган нормалар ва халқаро нормалар солиштирган.

**Калит сўзлар:** Солиқ, фуқаровий даъво, фуқаровий жавобгарлик, жиноий жавобгарлик, ортиқча ҳисобланган солиқлар, субсидиар жавобгарлик.

Агар корхоналар томонидан директорларнинг айби билан қўшимча солиқ тўланса, ушбу зарар директорлардан ундирилиши мумкин.

Ушбу мақолада қандай далиллар директорларга корхоналарнинг солиқ қарзлари бўйича жавобгарликнинг олдини олишга ёрдам бериши ёритилган.

Корхонанинг мол-мулки етарли бўлмаганида солиқ қарздорлиги корхона директоридан ундирилиши мумкин. Фуқаролик кодексининг 45-моддасида ва “Масъулияти чекланган ва қўшимча масъулиятли жамиятлар тўғрисида”ги қонуннинг 42-моддасида жамият директори ўз ҳуқуқларини амалга оширишда ва мажбуриятларини бажаришда жамият манфаатларини кўзлаб ҳалол ва оқилона ҳаракат қилишлари кераклиги белгиланган. [1]

Агар ташкилот директорнинг ноҳалол ва асоссиз ҳаракатлари натижасида жавобгарликка тортилса, бунинг натижасида корхонага етказилган зарар директордан ундирилиши мумкин. Буни бир неча усуллар билан амалга ошириш мумкин:

- Тўловга қобилиятсизлик иши доирасида директорни субсидиар жавобгарликка тортиш тўғрисидаги ариза;
- Корхонага етказилган зарарни коплаш тўғрисидаги даъво (бунинг таркибига директор реабилитация қилиш асосларидан бошқа асосларга кўра жиноий жавобгарликдан озод қилинганлиги ҳолатлари ҳам киради);
- Фуқаролик қонунчилигининг умумий нормалари асосида директорни етказилган зарар учун жавобгарликка тортиш тўғрисидаги даъво.

*Қандай ҳолларда директор ўзини солиқ органларининг даъволаридан ҳимоя қила олади?*

### **Шубҳали корхоналар билан шартномалар тузиш.**

Корхонани солиқ жавобгарлигига тортишнинг энг кенг тарқалган сабабларидан бири бу шубҳали корхоналар билан ишлашдир. Бундай вазиятларда директор ўз ҳаракатларини оқилона ва ҳалол усулда бажарганлигини исботлаши лозим. Директор ўз ҳаракатларини оқилона ва ҳалол усулда бажармаганлиги у шартнома тузилаётган корхонанинг ишчанлик обрўсига баҳо бермаганлигида, зарур ресурсларга эга эканлигига ишонч ҳосил қилмаганлигида, шартномага имзо қўйувчи шахснинг ваколатларини текшириш учун зарур чоралар кўрмаганлигида ҳамда бундай корхонани ишга жалб қилиш учун иш мақсадининг мавжуд бўлмаганлигида ифодаланади.

Бундай вазиятларда директор шартнома тарафини танлашда оқилона ҳаракат қилганлигини исботлаши лозим.

Бунинг учун директор куйидагиларга ишонч ҳосил қилганлиги тасдиқланиши лозим:

1) Корхонанинг давлат рўйхатидан ўтказилганлиги (бунинг учун судга тегишли ҳужжатлар: устав, корхонани ташкил этиш тўғрисидаги қарор, шартнома тузилишидан олдин олинган корхона ва ташкилотларнинг ягона давлат реестридан кўчирма, директорни/таъсисчини лавозимига тайинлаш тўғрисида буйруқ ва бошқалар тақдим этилиши лозим. )

2) Шартномадаги тараф солиқ қарздорликлари бўйича мажбуриятларини бажарганлиги. Бунинг учун солиқ органларидан шартномадаги тарафнинг қарздорлиги мавжуд эмаслиги



ҳақида маълумотнома олиш керак.

3) Шартномадаги тарафнинг шартнома мажбуриятларини бажариш учун зарур бўлган моддий ресурслари ва ходимлари мавжудлиги. Қуйидагиларни тасдиқловчи ҳужжатлар далил сифатида олинади:

- Шартномадаги тарафда ходимларнинг мавжудлиги (штат жадваллари ёки шартнома мажбуриятларини бажариш учун жалб қилинган ходимларнинг фуқаролик-ҳуқуқий шартномалари);

- Асосий воситалар, транспортлар ва жиҳозларнинг мавжудлиги;
- Шартномадаги тарафда офиснинг мавжудлиги (мулк ҳуқуқини тасдиқловчи ҳужжатлар, аренда шартномаси ва бошқалар)

Шунингдек, директор шартномадаги тарафнинг раҳбарларини таниганлигини, учрашувлар ўтказганлигини ва ҳамкорликда ўзаро ишлаганликларини исботловчи далилларни тақдим этиши лозим. Бундай далиллар сифатида раҳбарларнинг паспорт нусхалари, учрашув баённомалари ва бирга туширилган суратлар ҳисобга олинади мумкин. Бундан ташқари, директор шартномадаги тарафнинг ишга жалб қилинишининг мақсадини айнан шу тарафни танлаш учун сабабларни кўрсатувчи далиллар тақдим этиш орқали исботлаши лозим. Бунинг учун қуйидагиларни тақдим қилиши керак:

1. Интернет тармоғидаги корхона ҳақидаги маълумотлар (шартномадаги тарафнинг веб-сайтидан нусха, у ҳақидаги интернетдаги мижозларнинг фикрлари);

2. Шартномадаги тараф билан алоқани тасдиқловчи ҳужжатлар (ёзишмалар, учрашув баённомалари);

3. Шартномадаги тарафнинг ишчанлик обрўси тасдиқловчи ҳужжатлар (тавсиявий хатлар, фикрлар);

4. Ушбу корxonани шерик сифатида танлаш сабабларини тушунтириш — бошқа корxonалардан олинган тижорат таклифларини тақдим этиш, корxonани танлаш сабабини шартномалар тузилган шартлар асосида асослаш (энг яхши нарх, муддатлар ва бошқалар).

#### **Асосланмаган харажатлар.**

Баъзи ҳолларда директор корхона эҳтиёжлари учун сарфланган чиқимларни асослаб беришга тайёр бўлиши лозим. Масалан, корxonанинг 2.5 млрд солиқ қарздорлиги мавжуд бўлган вақтда директор корxonанинг ҳисоб рақамида мавжуд пулларини корхона эҳтиёжлари учун ишлатиб юборди, яъни солиқ қарздорлигини тўлашни корхона эҳтиёжлари учун тўловдан сўнг бажарилдиши лозим деб ҳисоблади. Бундан ташқари, директор ташкилотнинг ҳисобварақларидан маблағларни солиқ қарзини тўлаш учун мажбурий ундиришга тўсқинлик қилди. Судлар бундай ҳаракатларни директорни субсидиар жавобгарликка тортиш учун асос сифатида олиши мумкин.

Бундай вазиятда директор корхона эҳтиёжлари учун сарфланган пуллар корxonани ривожлантириш учун ажратилганлигини ҳамда айнан корxonанинг солиқ қарздорлиги мавжуд бўлган даврда ушбу харажатларни кечиктириб бўлмаглигини исботловчи ҳужжатларни тақдим қилиши лозим. Шунинг таъкидлаш лозимки, агар директор корхонага нисбатан тўловга қобилиятсизлик жараёни бошлангунга қадар корxonанинг мол-мулкни яширган бўлса, у яширган пул суммаси миқдоридан субсидиар жавобгарликка тортилиши мумкин.

#### **Директорнинг қасдан содир қилган ҳаракатлари.**

Агар корхона директорининг қасдан содир қилган ҳаракатлари натижасида корхонага зарар етказилса, ушбу ҳаракатлар директорни жавобгарликка тортиш учун асос бўлади. Агар директорга нисбатан бундай даъволар берилса, директор ўзининг айбсизлигини исботлаши лозим. Қуйидагилардан далил сифатида фойдаланиш мумкин:

- Директор мустақил равишда солиқ ҳисоботларини юритмайди, чунки унинг солиқ соҳаси бўйича маълумоти мавжуд эмас. Шу сабабли ушбу ишларни бажариш бош бухгалтерга ёки хизмат кўрсатувчи бухгалтерлик фирмасига топширилган. Директор ушбу ҳолатни тасдиқловчи далилларни тақдим қилиши лозим.

- Директор солиқ ҳисоби ва ҳисоботи масалалари бўйича қасдан адаштирилган.
- Қоидабузарлик натижасида директор ҳеч қандай иқтисодий фойда олмайди. Хатолар техник хатолар жумласига киради.

Масалан, директорнинг хатти-ҳаракатлари натижасида солиқ ҳисоботлари ўз вақтида топширилмаган ва натижада корхонада солиқ қарздорлиги, пеня ва жарималар вужудга



келган. Кейинчалик уларни тўламаслик натижасида корхона тўловга қобилиятсиз деб эълон қилинган. Натижада суд директорнинг хатти-ҳаракатлари ва корхонанинг тўловга қобилиятсизлиги ўртасида сабабий боғланиш мавжуд деб аниқлаши мумкин ва директорни субсидиар жавобгарликка тортиши мумкин.

Субсидиар жавобгарликни олдини олиш учун директор қуйидагиларга риоя қилиши лозим:

- Шартномадаги тарафнинг ишчанлик обрўсини, унинг зарур ресурсларга эга эканлигини, юридик шахс номидан иш олиб боровчи шахснинг ваколатлари мавжуд эканлигини текшириши;

- Ассосиз солиқ имтиёзларидан фойдаланмаслик, солиқ ҳисоботларини ўз вақтида юритилишини назорат қилиш, сохта ҳужжатлар пайдо бўлишига йўл қўймаслик, корхона ҳисобрақамидан ассосиз пул маблағлари чиқарилмаслигини назорат қилиш;

- Солиқдан қочишнинг ноқонуний усулларини ўйлаб топмаслик, сохта шартномалар имзоламаслик ва бошқалар.

#### **Жавобгарликка тортишнинг бошқа ҳолатлари.**

Баъзи ҳолатларда корхона директори томонидан солиқ органининг қонуний қарорини кучга киришига қаршилик қилиш унинг субсидиар жавобгарликка тортилишига олиб келади. Ушбу қарши чиқиш солиқ органининг қонуний қарорини кечиктириш мақсадида ассосиз равишда қарор устидан шикоят қилишда намоён бўлиши мумкин. Солиқ органининг қарори устидан шикоят қилинганда директор шикоятнинг асослилигига эътибор қаратиш лозим. Агар ушбу ҳаракат қарорнинг кучга киришини қасддан кечиктириш учун амалга оширилса, корхона директори корхонанинг солиқ қарзлари юзасидан субсидиар жавобгарликка тортилиши мумкин.

Шунингдек, қуйидаги ҳолларда директор корхонага нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатиш ҳақида ариза билан судга мурожаат этиши шарт:

- бир ёки бир нечта кредиторларнинг талабларини қаноатлантириш корхонанинг бошқа кредиторлар олдидаги пул мажбуриятларини ва (ёки) солиқлар ҳамда йиғимлар бўйича ўз мажбуриятларини тўлиқ ҳажмда бажаришини имконсиз қилиб қўйишга олиб келадиган бўлса;

- корхонанинг таъсис ҳужжатларига мувофиқ корхонани тугатиш тўғрисида қарор қабул қилишга ваколатли бўлган орган томонидан корхонани тугатиш тўғрисида ариза билан судга мурожаат этиш ҳақида қарор қабул қилинган бўлса;

- унитар корхона мол-мулкининг эгаси ваколат берган орган томонидан корхонанинг аризаси билан судга мурожаат этиш тўғрисида қарор қабул қилинган бўлса;

- корхонанинг мол-мулкига қаратилган ундирув корхонанинг хўжалик фаолиятини имконсиз қилиб қўйиши ёки бошқа кредиторлар талаблари қаноатлантирилмаслигига олиб келиши мумкин бўлса.

Агар корхона тугатилаётганда кредиторларнинг талабларини тўлиқ ҳажмда қаноатлантириш имконсизлиги аниқланган бўлса, тугатиш комиссияси ёки тугатувчи судга қарздорга нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатиш ҳақида ариза билан мурожаат этиши шарт. Қарздорнинг, тугатиш комиссиясининг ёки тугатувчининг аризаси юқорида назарда тутилган ҳолатлар юзага келган пайтдан эътиборан бир ойдан кечиктирмай судга юборилиши керак. Корхонанинг раҳбари, тугатиш комиссияси аъзолари ёки тугатувчи томонидан судга қарздорга нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатиш ҳақида ариза тақдим этилмаганлиги бир ой муддат тугаганидан кейин қарздорнинг юзага келган пул мажбуриятлари ва (ёки) солиқлар ҳамда йиғимлар бўйича мажбуриятлари корхона раҳбарининг, тугатиш комиссияси аъзоларининг ёки тугатувчининг субсидиар жавобгарлигига сабаб бўлади.[2] (“Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги қонун 9-10 моддалари)

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбекистон Республикасининг “Масъулияти чекланган ва қўшимча масъулиятли жамиятлар тўғрисида”ги қонуни. (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.01.2023 й., 03/23/815/0044-сон)

2. Ўзбекистон Республикасининг “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги қонуни (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 13.04.2022 й., 03/22/763/0306-сон)



---

THE CONCEPT OF DOUBLE TAXATION. AVOIDANCE OF DOUBLE TAXATION IN DOMESTIC AND INTERNATIONAL LAW

Mo'minov Mirzakhokim Abdukhamid o'g'li

Toshkent state university of law, Master of the direction  
“International commercial law”

Phone: +998911217469

E-mail: mirzahakim700@gmail.com

**Annotation:** In this article, the author clarified the content of the concept of "double taxation" and to formulate its definition based on the study of the genesis, prerequisites for the emergence and evolution from the point of view of the theory and practice of domestic and international law. Moreover, he identified the characteristic features of the legal nature and application of the provisions of international legal and recommendatory acts regulating the ADT in the domestic sphere.

**Key words:** Avoidance of double taxation (ADT), domestic law, international law, international economic law (IEL), tax, taxation, regulation, norms, property, benefit.

Earlier references have already been made to the theses present in the doctrine on the reasons determining double taxation, which, despite varying, still mostly agree that their basis is objective: "international economic activity creates conditions for its participants to have tax obligations in different states. This leads to international multiple taxation, which absorbs the intertwining of economic, political, legal and other social relations." [1]

The concepts of "taxation", "double taxation", "avoidance" or "elimination" of double taxation, etc. are immanent in the scientific-theoretical, normative and practice-oriented basic "pillars" of international economic and domestic tax law. For science in general, the problem of developing a proper foundation - the basic concepts - is extremely important. In particular, A.V. Demin emphasizes (although, in relation to tax law as a branch of domestic law): "Of great importance is the unity of the conceptual apparatus within the tax law itself (internal consistency) and its compliance with the definitions of other branches of law (external consistency). Newly adopted norms-definitions should not contradict the previously adopted ones. Particular attention should be paid today to the coordination of the conceptual apparatus of tax law with the international legal sources". [2]

These considerations should be fully supported, since they are not only absolutely correct, but also extremely relevant for many areas of jurisprudence, including the science of international law, including "international tax law". To this we must necessarily add that from the point of view of objective law (especially in the field of international agreements in the field of ADT) conceptual and, in particular, terminological aspects are important primarily in practical terms. In the light of this, we should point out the emergence in the modern lexicon and scientific turnover of relatively new terms (and concepts denoted by them), which are quite widespread in scientific and practical terms, but are not always accompanied by a legal definition. These are many categories: "double economic" and "double legal" taxation, "international taxation", "international double taxation" - as well as other related variants of designating certain phenomena. A glossary published under the auspices of the OECD distinguishes between "domestic" and "international double taxation." "Domestic taxation" arises when comparable taxes are levied within a federal state by independent taxing authorities of equal power. The so-called "international" taxation is linked by the mentioned source to taxation in different states: "international double taxation" arises when comparable taxes are levied in two or more states on the same taxpayer on the same taxable income or capital, that is, when income is subject to taxation both in the source country and in the country where the person receiving the income is resident. Also, double taxation is "legal" when the same person is taxed twice on the same income by more than one state. Economic double taxation occurs when a tax is imposed on more than one person with respect to the same object. [3]

These approaches and definitions were in great demand in doctrine and practice. Relevant views of foreign and domestic authors (N.P. Kucheyavenko, N.A. Solovyeva, V.V. Semenikhin, A.V. Tolkushkin, L.V. Polezharova, A.A. Shakiryaynov, etc.) are a direct confirmation of this. In particular, referring to the definition existing in the materials of the OECD, N.A. Solovyeva,



referring to the "international legal double taxation", qualifies it as imposition of comparable taxes in two (or more) countries on the same taxpayer with respect to one and the same object for the same period. V.V. Semenikhin takes the formula proposed by the OECD as a generally accepted understanding of the analyzed phenomenon, citing it as the first step in the attempts to define double taxation: "Double taxation is simultaneous taxation of the same income either with different taxes within the same country - the so-called economic double taxation, or with an identical tax in different countries - international double taxation". [4]

L.V. Polezharova's position is also in this vein: "International double taxation is the levying of comparable taxes in two (or more) states on the same taxpayer in respect of the same object and for the same periods". "The main purpose of double taxation treaties," she writes, "is to facilitate international trade and investment by reducing tax barriers to the free international exchange of goods and services. Tax relief encourages trade and investment. In doing so, each state involved in international trade acts in two capacities in terms of taxation: in some situations, the state taxes income as the country of residence of the taxpayer, while in other situations it taxes income as the source state of income received by a non-resident. A.V. Tolkushkin's approach to the definition is "combined" and similar in essence, although expressed in a slightly different way: "Double taxation (international) is a term of international tax law, denoting the situation when simultaneously in two or more countries one and the same person is considered by the tax legislation as a taxpayer or one and the same object is considered as an object of taxation". However, the bracketed adjective "international" hardly changes the essence of the stated view towards introducing any distinctions. According to the Romanian author M.J. Radu, "international double taxation" means direct (direct) taxation of the same taxable objects during the same period of time by the state authorities of different countries. In Russian and foreign legal doctrine, an approach to the concept of "international taxation" based on the differentiation of its meaning, narrow or broad, has begun to spread. [5]

The first version deals with relations connected with the imposition and collection by the state of taxes and other similar uncompensated obligatory payments from persons falling under the tax jurisdiction of that state. This applies both to the income of foreign individuals and entities temporarily located in its state and to income received by citizens and residents of said state from sources outside its borders. Speaking of the broad perception of so-called "international taxation," in addition to its essence outlined earlier, it also includes interaction of tax authorities in different states, exchange of information, combating international tax evasion and cooperation in the tax sphere on other issues regulated by bilateral and multilateral international treaties. [6] There are researchers who perceive the narrow and broad meaning of "international taxation" differently - through the prism of the sources of national tax law governing "tax legal relations complicated by a foreign element". [7] At the same time, "international tax law" is proclaimed to be a "polysystemic complex" [8] It is worth recalling in this connection that for the first time the concept of "polysystemic complex" was expressed, giving a modern sounding to the ideas of A. N. Makarov, by R. A. Mullerson, in relation to the qualification of the nature of private international law. [9] Here we will not dwell on the objections raised by the above statements concerning the "regulation of legal relations" or the association of "sources" and "rules", or the opposition between "domestic" and "conflict-of-laws" rules, as if the latter - in the proposed context - could not be rules of conduct contained in sources of domestic law. Although the wording in the quoted passages testifies to considerable legal errors and "mistakes", the basic idea should be the inclusion in "international tax law" of both international and national legal components, which, based on the qualification of "international tax law" as part of international economic law, cannot be accepted. Thus, everywhere in the definitions there are references to taxation by "more than one State", "two or more countries". It is this factor that forms the basis of the category of "double taxation" in legal terms, which, however, is presented in most cases as "international double taxation". This circumstance undoubtedly requires clarification. It is, of course, important to take into account the above provisions on the distinction between the treatment of "double taxation" in terms of internal and external factors, as well as the differences in their nature in national and international law. Nevertheless, the phenomenon of "internationality" in any case implies going beyond the domestic legal order and the economy of one State, and the hypothetical existence of "international" taxation would have to mean taxation in the international sphere itself - the collection of "international" payments, which in reality does not happen.

Thus, everywhere in the definitions there are references to taxation by "more than one state," "two or more countries. It is this factor that forms the basis of the category of "double taxation"



